

MAKTABGACHA TA'LIMNI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING YANGI MODELLARI: INNOVATSION YONDASHUV VA AMALIY ISTIQBOLLAR

K. Usmonova

**Andijon viloyati Izboskan tumani 8-DMTT
direktori, Xalq ta'limi a'lochisi**

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning zamonaviy modellari, ularning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy tatbiqi tahlil qilingan. Xususan, davlat–xususiy sheriklik, ota-ona bilan strategik hamkorlik, tarmoqlararo integratsiya, raqamli hamkorlik hamda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish modellarining mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, mazkur modellarni joriy etish mexanizmlari va ta'lim sifatiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, hamkorlik modeli, davlat–xususiy sheriklik, tarmoqlararo integratsiya, raqamli ta'lim, jamoatchilik ishtiroki.

Annotatsiya

V statye analiziruyutsya sovremenniye modeli organizatsii sotrudnichestva v sisteme doshkolnogo obrazovaniya, ix nauchno-teoreticheskiye osnovi i prakticheskaya realizatsiya. Osoboye vnimaniye udeleno modelyam gosudarstvenno-chastnogo partnyorstva, strategicheskogo vzaimodeystviya s roditelyami, mejotraslevoy integratsii, sifrovogo sotrudnichestva i usileniya uchastiya obshestvennosti. Raskrivayutsya mexanizmi vnedreniya dannix modeley i ix vliyaniye na kachestvo doshkolnogo obrazovaniya.

Annotation

This article analyzes modern models of cooperation in the preschool education system, their theoretical foundations, and practical implementation. Special attention is paid to public–private partnership models, strategic cooperation with parents, intersectoral integration, digital cooperation, and increased community participation. The mechanisms for implementing these models and their impact on the quality of preschool education are scientifically substantiated.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi bo'g'in sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida ta'limni an'anaviy usullarda boshqarish yetarli emas. Shu bois maktabgacha ta'limni boshqarishda yangi modellar, innovatsion menejment mexanizmlari va samarali institutsional hamkorlik tizimini joriy etish dolzarb vazifaga aylandi.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limni boshqarish va hamkorlikni tashkil etishning zamonaviy modellari, ularning ilmiy-nazariy asoslari va amaliyotda qo'llash mexanizmlari keng yoritiladi.

1. Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy modeli

1.1. Markazlashtirilgan boshqaruvdan detsentralizatsiyaga o'tish. An'anaviy tizimda qarorlar asosan markaziy darajada qabul qilingan. Yangi model esa: mahalliy hokimliklar vakolatini kengaytirish, MTT rahbarlariga moliyaviy va akademik mustaqillik berish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Bu o'z navbatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarning tezkor qaror qabul qilishini va mahalliy ehtiyojlarga moslashuvchanligini oshiradi.

Boshqaruv tizimini takomillashtirish har qanday davlat taraqqiyotining asosiy sharti hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim sohasida markazlashtirilgan boshqaruv modeli uzoq yillar amal qilib, barqarorlikni ta'minlab keldi. Biroq hozirgi islohotlar sharoitida ushbu model o'zining barcha imkoniyatlarini ochib bera olmayotgani ko'zga tashlanmoqda. Shu bois detsentralizatsiyaga o'tish — zamonaviy boshqaruvning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Markazlashtirilgan boshqaruvning mohiyati va cheklolari

1.1. Markazlashgan tizim xususiyatlari

Markazlashtirilgan tizim quyidagi jihatlari bilan tavsiflanadi: qarorlar asosan yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilinadi;

barcha moliyaviy va ma'muriy resurslar markaz orqali taqsimlanadi;
mahalliy darajada mustaqil qaror qabul qilish cheklangan;

1.2. Amaldagi muammolar

hujjat aylanmasining ortiqcha byurokratlashuvi;
qaror qabul qilishning sekinligi;
mahalliy ehtiyojlarni yetarlicha inobatga olmaslik;
rahbarlarda tashabbuskorlikning pasayishi.

Amaliy misol:

Boshqaruv markazlashgan davrda ayrim MTTlarda hatto mayda ta'mir ishlarini amalga oshirish uchun yuqori tashkilotdan ruxsat kutish 2–3 oygacha cho'zilgan holatlar uchragan.

2. Detsentralizatsiyaning mazmuni va tamoyillari

Detsentralizatsiya — bu vakolatlarni markazdan hududiy va muassasaviy darajaga bosqichma-bosqich o'tkazishdir.

Asosiy tamoyillar:

Vakolat va javobgarlik birligi;
mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;
fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish;
resurslardan samarali foydalanish.

3. Maktabgacha ta'lim tizimida detsentralizatsiyani joriy etish yo'nalishlari

3.1. Moliyaviy mustaqillik berish

Yangi modelda:

MTTlarga mustaqil smeta shakllantirish huquqi beriladi;
xomiyalar va grantlar jalb qilishga ruxsat etiladi;
mahalliy budjet bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash imkoni kengayadi.

Amaliy misol:

Ayrim MTTlarga tajriba tariqasida mustaqil xo'jalik yuritish huquqi berildi va ular bolalar maydonchasini homiyalar hisobiga qisqa vaqtda yangilashga muvaffaq bo'lishdi.

3.2. Kadrlar siyosatida mustaqillik

Detsentralizatsiya sharoitida:

direktor va tarbiyachilarni tanlash jarayonida mahalliy komissiyalar faollashadi;
ichki attestatsiya tizimi joriy etiladi;
pedagoglarni rag'batlantirish bo'yicha ichki mexanizmlar ishlab chiqiladi.

Amaliy misol:

MTTlarda mahalliy darajada o'tkazilgan ochiq tanlov orqali saralab olingan tarbiyachilar ishga qabul qilinib, natijada jamoada sog'lom raqobat muhiti shakllandi.

3.3. O'quv-tarbiya jarayonidagi mustaqillik

Endilikda:

MTTlar davlat umumiy standartiga tayanadi, lekin o'qitish shakl va usullarini mustaqil tanlaydi;

innovatsion dasturlarni sinov tariqasida joriy etish imkoni kengayadi.

Amaliy misol:

Bir qator MTTlarda "erta rivojlantiruvchi markazlar" tashkil qilinib, bolalar uchun maxsus STEAM burchaklari ochildi.

1.2. Strategik boshqaruv modeli

Yangi boshqaruv modeli qisqa muddatli vazifalar emas, balki, uzoq muddatli strategiya, indikatorlar asosida natijani baholash, risk-menejment, sifatni boshqarish tizimini o'z ichiga oladi.

Har bir MTT uchun 5 yillik strategik rivojlanish rejasi ishlab chiqilishi zamonaviy talabdir.

Maktabgacha ta'lim tizimini samarali rivojlantirish faqat davlat resurslari hisobidan emas, balki barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida mustaxkam hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali amalga oshadi. Zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'limda hamkorlik (partnership) tushunchasi yangi mazmun kasb etib, davlat, oila, jamoatchilik, xususiy sektor va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi integratsiyaga asoslanmoqda.

Hamkorlikning ilmiy-nazariy asoslari

Zamonaviy pedagogik nazariyalarda hamkorlik quyidagi tamoyillarga asoslanadi, o'zaro ishonch; mas'uliyatni bo'lishish, ochiq muloqot, barqaror hamkorlik munosabatlari, maqsadlarning umumiyligi.

Hamkorlik maktabgacha ta'limni boshqarishda "shaxs – oila – jamiyat" integratsiyasini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'limda hamkorlikning yangi modellari

- Davlat–xususiy sheriklik (DXSH) modeli

Bu modelda: xususiy sektor bog'chalar ochishga jalb qilinadi;

davlat tomonidan yer, soliq imtiyozlari va subsidiyalar beriladi. ta'lim sifati ustidan davlat nazorati saqlanib qoladi. Samarqand va Toshkent viloyatlarida davlat–xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan MTTlar orqali bolalar qamrovi sezilarli oshirildi. Ota-ona bilan strategik hamkorlik modeli

Ota-ona: faqat kuzatuvchi emas, ta'lim-tarbiya jarayonining to'laqonli ishtirokchisi, sifatida ishtirok etadi.

Hamkorlik shakllari: ota-onalar klubi, ochiq mashg'ulotlar, trening va seminarlar, raqamli muloqot platformalari. MTTda joriy etilgan "Ota-ona maktabi" loyihasi orqali ota-onalarning pedagogik savodxonligi oshirildi.

Tarmoqlararo integratsiya modeli

MTT quyidagi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi:

sog'liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy himoya organlari, psixologiya markazlari, madaniyat va sport tashkilotlari, mahalla tuzilmalari.

Bolalar stomatologik ko'rigi tuman poliklinikasi bilan hamkorlikda muntazam o'tkazilmoqda.

Jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish modeli

Bu model quyidagilarni nazarda tutadi: vasiylik kengashlari, jamoatchilik nazorati, volontyorlar faoliyati, mahalliy faollarni jalb qilish.

MTT huzurida “Jamoatchilik kengashi” tashkil qilinib, muassasa faoliyati ustidan ochiq jamoatchilik muhokamasi yo‘lga qo‘yildi.

Raqamli hamkorlik modeli

Zamonaviy sharoitda hamkorlik onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi: elektron kundaliklar, mobil ilovalar orqali ota-ona bilan aloqa, onlayn monitoring tizimlari, masofaviy seminarlar. MTTlarida Telegram va maxsus platformalar orqali ota-onalarga har kunlik ma’lumot uzatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Inklyuziv hamkorlik modeli. Bu model alohida ehtiyojli bolalar uchun: logoped, defektolog, psixolog, tibbiyot muassasalari, ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiyaga asoslanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida eshitishida qiyinchilik bor bolalar uchun maxsus qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Hamkorlik modellarini joriy etish mexanizmi

Samarali joriy etish uchun: aniq meyoriy baza, rol va mas’uliyatlarni taqsimlash, monitoring va baholash, KPI indikatorlarini belgilash muhim hisoblanadi.

Yangi modellarning afzalliklari

Yangi hamkorlik modellari, ta’lim sifatini oshiradi, bolalar qamrovini kengaytiradi, shaffoflikni ta’minlaydi, jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta’limda hamkorlikning yangi modellari — ta’limni faqat davlat zimmasiga yuklab qo‘ymasdan, jamiyatning barcha resurslarini safarbar etishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Bu modellar barqaror ta’lim tizimini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. BMT. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. – Nyu-York, 1989.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat–xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2017–2023.
6. UNESCO. Early Childhood Care and Education: Policies and Practices. – Paris, 2020.
7. UNICEF. Public–Private Partnerships in Early Childhood Education. – New York, 2021.